

FARG‘ONA VODIYSI QIRG‘IZLARINING ETNOLINGVISTIK
O‘ZIGA XOSLIGI

Inatullayev Baxromjon Boqijonovich

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida til, uning etnolingvistik xususiyati, tilning milliy identiklikni saqlashdagi roli, Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida ikki tillilik (bilingvizm) hodisasi va uning omillari atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari, til, etnolingvistika, faringeallashuv, madaniyat, bilingvizm, identiklik, madaniyat

ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КЫРГЫЗСКОГО
НАРОДА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Инатуллаев Бахромжон Бакиджонович

Доцент кафедры искусствоведения Наманганского
государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматривается язык в культуре кыргызов Ферганской долины, его этнолингвистические особенности, роль языка в сохранении национальной идентичности, феномен билингвизма (двуязычия) в культуре кыргызов Ферганской долины и ее факторы тщательно анализируются.

Ключевые слова: кыргызы Ферганской долины, язык, этнолингвистика, фарингализация, культура, двуязычие, идентичность, культура.

ETHNOLINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE KYRGYZ
PEOPLE OF THE FERGANA VALLEY

Inatullayev Bakhromjon Bakijonovich

Namangan State University Associate Professor of the
Department of Art Studies

Abstract. In this article, the language in the culture of the Kyrgyz of the Fergana Valley, its ethnolinguistic features, the role of language in maintaining national identity, the phenomenon of bilingualism (bilingualism) in the culture of the Kyrgyz of the Fergana Valley and its factors are thoroughly analyzed.

Key words: Fergana Valley Kyrgyz, language, ethnolinguistics, pharyngealization, culture, bilingualism, identity, culture

Etnolingvistika, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan sifatida u, tilning madaniy rivojini shakllanish jarayoni va tilga nisbatan qo'yiladigan madaniy talablarni hamda milliy qadriyatlarni tilga nisbatan ta'sirini o'rganadi. Etnomadaniy kontekstning ajralmas qismi sifatida tilga nisbatan bunday talab qo'yish, etnolingvistik tuzilmalarni turli insonlar guruhlarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettirish jarayonini tushunishga imkon beradi.

Etnolingvistika milliy madaniyat va til o'rtasidagi munosabatni o'rganadi, mohiyatiga ko'ra etnolingvistika til nuqtai nazaridan millatning madaniy xususiyatlari bilan aks ettirilgan milliy tafakkurni tahlil qiluvchi madaniy ifoda turidir.

“Etnolingvistika” tushunchasini qirg'iz va o'zbek tilida so'zlashuvchi etnik guruhlarni dunyoqarashlarni qiyosiy jihatdan ko'rib chiqish, ular o'rtasidagi mentalitetdagi farqlarni batafsilroq ochib berishga, shuningdek, ushbu tilda so'zlashuvchi etnik guruhning milliy o'ziga xosligini aks ettirishni o'rganishga imkon beradi.

“Etnolingvistika” tushunchasini ilk bora antropolog B.K. Malinovskiy tufayli fan sohasi sifatida shakllandi. B.K. Malinovskiy, til hamjamiyatining umumiy dunyoqarashini tushunish uchun uning etnomadaniy turmush tarzi hamda nutqning shaxslararo munosabatdagi ahamiyatini kuzatish asnosida uning e'tiqodlari va ma'naviy tizimini o'rganishga e'tibor qaratgan.

Madaniy tilshunoslik, til va etnomadaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan bo'lib, yurtimizda “til, tafakkur, madaniyat va ularning munosabatlari” bir-biriga o'xshash sohadir. Shuning uchun ham tushunchalar ta'riflarini solishtirar ekanmiz, Qirg'iz etnolingvistik tushunchasi bilan o'zbek etnolingvistik tushunchasini til qurilishi va ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, rus etnolingvistik konsepsiyasi asosiga qurilgan.

An'anaviy ravishda madaniy (etnolingvistik) tilshunoslikni uchta ilmiy paradigmaga ajratish mumkin: qiyosiy-tarixiy, tizimli (strukturaviy) va nihoyat, antroposentrik. Qiyosiy tarixiy paradigma tilshunoslikdagi birinchi ilmiy paradigma sifatida tilning kelib chiqishi, shakllanishi va qiyosiy tarixiy metod, tilni o'rganishning birinchi maxsus usuli edi. Til insoniyat jamiyatida paydo bo'lgan ko'p qirrali hodisa: u tizimli va shuningdek, faoliyat mahsuli bo'lib, o'zini-o'zi tartibga soluvchi hodisa sifatida tilni barcha murakkabligi bilan qarama-qarshi tomondan tavsiflash orqali biz uning mohiyatini ochib beramiz.

Tilning xususiyatlari shunchalik noyobki, biz mohiyatan tilda bir emas, balki bir nechta tuzilmalarning mavjudligi haqida fikr yuritishimiz mumkin, ularning har biri integratsiyasi, tilshunoslikning paydo bo'lishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Антропосентрик парадигма pozisiyasidan inson o‘z-o‘zini anglash, undagi nazariy va mazmunli faoliyati orqali dunyoni tushunadi. Biz dunyoni inson prizmasi orqali ko‘rishimiz, ko‘plab lingvistik tasdiq, metafora va ortirmalarda ko‘rinadi. Binobarin, antroposentrik paradigmaning shakllanishi, lingvistik masalalarning inson madaniyatdagi o‘rniga nisbatan burilishiga olib keldi, chunki madaniyat va madaniy an‘analarning xilma-xilligi diqqat markazida til hamda shaxs turadi.

Lingvistik shaxs muloqoti ko‘p o‘lchovli bo‘lib, bu og‘zaki muloqotning strategiyasi va taktikasi, kommunikasiyalar ijtimoiy hamda ruhiy roli va muloqotga kiritilgan ma'lumotlarning madaniy ma'nosi bilan bog‘liq. Ushbu paradigma doirasida shakllangan zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari kognitiv lingvistika va lingvistik madaniyat, tildagi madaniy omil hamda lingvistik omilga qaratilishi kerak. Tilshunoslik sohasida so‘nggi o‘n yilliklarda rivojlanayotgan antroposentrik paradigma binobarin, lingvistik madaniyatning mahsulidir.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchasi axborot tushunchasi va uni inson ongi tomonidan qayta ishlash, bilim tuzilmalari tushunchasi va ularning inson ongida va til shakllarida ifodalanishidir. Lingvistik madaniyat, maxsus milliy mentalitet, tilni madaniy hodisa sifatida o‘rganadi, bu milliy til prizmasi orqali dunyoni ma'lum bir ko‘rish, til ko‘rsatkich sifatida harakat qilganda barcha tilshunoslik madaniy-tarixiy mazmun bilan singib ketgan, chunki tilshunoslikni predmeti madaniyatning sharti, asosi va mahsulidir.

“Madaniy tilshunoslik, etnolingvistikaga doir yaqin sohasi bo‘lib, til va madaniyat tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Madaniy tilshunoslik kognitiv fanda (jumladan, kognitiv taqsimotning murakkab tizimlari va jarayonlarini o‘rganishda) ham, antropologiyada ham nazariy va analitik taraqqiyotni tezlashtiradi. Madaniy tilshunoslik turli tillar, madaniy tushunchalarni o‘z xususiyatlari, jumladan, madaniy toifa va madaniy metaforalar orqali qanday aks ettirishini o‘rganadi” [1.]

Talas viloyati qirg‘izlarining tili mohiyatiga ko‘ra, qirg‘iz tilning sofligini saqlab qolgan hudud hisoblanadi. Shu sababli, Talas qirg‘iz tili dialekti bilan Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan so‘zlarni qiyoslandi.

Саламатсыз боло! – саламатсызбе

Жакшы күндөр – кунигыз жакшыи отсүн

Кандайсыздар-жагдай друспы ?

Рахмат- рэхмет!

Кым катар – кым келэд ?

Жарыяланган – жарыялэмы !

Кандай күнгө болот- кандай күнгө болот ?

Жаңы жылдын күтөрүү -жаңы жылдын күтөрүү

Тамаша бол - тамашэ бүл !

Бир мүмкүнчүлүк бериңиз- сүйлөшөбүзбү ?

Мүдүр- бастык

Болуш - болуш

Дүмүрчөк- дүмүрлөк

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari, O‘rta Osiyoda yashovchi ko‘plab etnik guruhlardan biri sifatida ularning tili, etnomadaniyati va milliy o‘ziga xosligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan etnolingvistik o‘ziga xoslikdir. Qirg‘izistonda yashovchi qirg‘izlardan yuqoridagi kabi jihatlari bilan ajralib turadi.

“Til, har bir millat, xalqning tarixiy shaxs sifatida mavjudligining asosiy shartlaridan biri, har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatidir. Har bir xalq, u, son jihatidan xoh ko‘p, xoh kam bo‘lsin, mangulikka intilishi, bu tabiiy huquqidir. Buning uchun esa xalqning tili yashab, ildiz otishi uchun boshqa tillar ham gullab-yashnashi kerak, taqdir esa insoniyatni dunyoda butunlay yolg‘iz qolib, boshqa tillarni o‘ziga singdirdi. Bu holatdan faqat bir narsani anglash mumkin, yaqin orada, dunyo oxirigacha inson ruhiyatini global tanazzulga olib keladi”. [2.]

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari bilan mintaqada o‘zaro aloqada yashovchi turkiy tillarning unli fonema tizimini qiyosiy tipologik tahlil qilindi. Aniq instrumental ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot vokal fonologik birliklarning inventarlarida ham, tizimli-strukturaviy tashkil etish tamoyillarida ham integrasiya va farqlovchi xususiyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining etnolingvistik o‘ziga xosligini o‘z ona tili qirg‘iz tilini sofliqini saqlashga bo‘lgan intilish asosiy o‘rin tutadi. O‘zbek, uyg‘ur, tojik va qoraqalpoq tillari ham turkiy tillar oilasiga mansub, biroq tarixiy-madaniy aloqalar tufayli tillarning o‘zaro ta'siri seziladi. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari boy tarixiy o‘tmishga ega bo‘lib, bu etnik guruhning shakllanishi, migrasiya oqimlari bilan chambarchas bog‘liq. Qirg‘iz tili qoraqalpoq, uyg‘ur va qipchoq lahjasi bilan fonetik, leksik va morfologik jihatdan o‘xshashlikni ko‘rsatadi—unlilarning fonemik holatida faringeallashuvi qirg‘iz vokalizmiga xos emas, faringeallashgan artikulyasiyalar qirg‘iz tilida faqat fonetik darajada –amalga oshiriladi va individual talaffuz xalqning genetik xotirasida saqlanib qolgan yakuniy hodisadir.

Qirg‘iz va o‘zbek tillari fonologik tizimini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha mavjud nazariy bazani tizimlashtirish va umumlashtirish maqsadida tadqiqot olib borildi. Bunday umumlashtirishning istiqbolli maqsadi yangi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish bo‘lishi kerak, qirg‘iz tilini o‘rgatishda fonetik muammolarni bartaraf etish kerak. V.A. Vinogradov fikriga ko‘ra: “Tillar fonologik darajada ular uchun zarur bo‘lgan turli xil fonologik toifalar to‘plami bilan farqlanadi. O‘zbek va qirg‘iz tilida ba'zi tovush, bo‘g‘in va fonologik kategoriyalar juda o‘xshash va bir-biriga o‘rini bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mazkur “o‘xshash” tovushlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diradi, bu to‘g‘ri artikulyasiya bilan bog‘liq emas. Xuddi shu o‘xshash tovushlar o‘rtasidagi sezilarli

farqlarni anglash bilan birga, boshqa fonemalarni ifodalovchi ayrim tovushlarni fonemalarini takroriy tarzda ishlab chiqarish kerak. Qirg‘iz-o‘zbek (qipchoq dialekti) tillari turkumi bo‘lib, ba‘zi tilshunoslarning fikricha, katta qipchoq yoki o‘g‘iz guruhiga kiradi. Shunga ko‘ra, g‘arbiy yoki sharqiy turkiy tili etnik guruh deb tasniflanadi.

Shubhasiz, u farg‘ona-qipchoq tilini (XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan va hozirda no‘g‘ay-qipchoq shevasi tarkibiga kiradi) va qirg‘iz tilini, shuningdek, aftidan, lopnor va xoton tillarini o‘z ichiga oladi. Tillar (Shimoliy qirg‘iz lahjasi) janubiy qirg‘iz shevalari aralash xarakterga ega: ular qirg‘iz-qipchoq, no‘g‘ay-qipchoq va qarluq-xorazm o‘rtasida tarqalgan.

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari etnik kichik guruhida intervokal undoshning jaranglashi -sh- va -s- harfini sirg‘aluvchi ya‘ni /z/ va /s/ fonemalari o‘rtasidagi farq yo‘qoladi. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarida -sh tovushi hozirga qadar s tovushi tarzida saqlanib qolgan. Jumladan, “kunigiz jakshii otsyn” ushbu ikkinchi jumlada kelgan sh harfi sirg‘aluvchi s tarzida talaffuz qilishdan, so‘z yasaladi.

Tilshunoslikda ikki tillilik, bilingvizm jahon aholisining 1/3 qismini tashkil etar ekan, dunyo axolsi o‘rtasida ko‘chish (migrasiya) avj olgani sababli, mehnat bozorida serdaromad ish o‘rniga ega bo‘lish uchun ikki va undan ortiq tilni bilish talab etiladi.

Farg‘ona vodiysi ko‘p millatli hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqa yashovchi aksariyat aholisi ikki tilda: o‘zbek-qirg‘iz, o‘zbek-uyg‘ur, o‘zbek-qoraqalpoq va o‘zbek –tojik tilida muloqot qiladi, chunki yuqorida keltirib o‘tilgan millatlar ko‘p asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan va millatlararo munosabatda o‘zlariga qulay bo‘lgan tilda muloqot qiladi.

“Bilingvizm, ya‘ni ikki tillilar - bu ikkala til ham ona tili bo‘lgan odamlardir. Bu shuni anglatadiki, ular kundalik hayotda bir tildan ikkinchi tilga aqliy tarjima qilish shartisiz, ularni bir-birining o‘rnida ishlatishadi. Misol uchun, uyda bir ota-ona ingliz tilida, ikkinchisi esa rus tilida gaplashadi. Aslida, ular ikki ona tilida birdek muloqot qiladilar”[3.].

O‘zga tilni yozma imlo va til qurilishi qoidalariga amal qilgan xolda o‘rganish, to‘g‘ri yozish, o‘qish va so‘zlashuvga amal qilinsa tilni mukammal o‘rganish mumkin bo‘ladi. Ammo, millatlararo munosabatlarda ko‘proq tilni og‘zaki shaklda o‘rganish ommalashgan, bu tarzda o‘rganishda ko‘proq so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zning ma‘nosini o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Маслова В.В. Лингвокультурология: учебное пособие. Москва: 2001.-С. 47
2. Цитаты Чингиза Айтматова, которые нужно помнить и сейчас.// <https://kaktus.media>
3. Баскаков Н. А. Введение в изучение тюркских языков. — Москва, (1969), 2019. -С. 26.